

PLACE LOCATION AND THEIR TACTICAL CHARACTERISTICS РАСПОЛОЖЕНИЕ МЕСТА И ИХ ТАКТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ JOY TURLARI VA ULARNING TAKTIK XUSUSIYATLARI

¹Mustaev Ruslan Damirovich, ²Мустаев Руслан Дамирович, ³Mustayev Ruslan Damirovich
Fergana State University, Faculty of Military Education, Deputy Head on Academic Affairs¹, Ферганский
государственный университет, факультет военного образования, заместитель начальника по учебной
работе², Farg'ona davlat universiteti, Harbiy ta'lim fakulteti, o'quv ishlari bo'yicha boshliq o'rinbosari³,

ABSTRACT

This article briefly discusses the place location and their tactical features. This article is intended to acquaint students of higher, secondary special and secondary education institutions with information about the place location and their tactical features.

Аннотация: В статье кратко рассматриваются места расположения и их тактические особенности. Данная статья предназначена для ознакомления студентов высших, средних специальных и средних учебных заведений с информацией о местоположении местности и их тактических особенностях.

Annotatsiya: Ushbu maqola joy turlari va ularning taktik xususiyatlari haqida qisqa yoritilgan. Ushbu maqola Oliy, o'rta maxsus va o'rta ta'lim muassasalari talabalariga (o'quvchilariga) joy turlari va ularning taktik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar bilan yaqindan tanishtirish uchun mo'ljallangan.

Keywords: relief, desert, steppe, place location

Ключевые слова: рельеф, пустыня, степь, расположение места

Kalit so'zlar: relyef, cho'l, dasht, joy turlari.

JOYNING TAKTIK XUSUSIYATLARINI JANGOVAR HARAkatLAR OLIB BORISHGA

KO'RSATADIGAN TA'SIRI

Joy undagi hukmron relyef shakli hamda o'simlik va tuproq qoplamining o'zaro farqiga ko'ra, bir necha turlarga ajratiladi. O'zbekistonda oltita joy turi uning deyarli barcha qismini egallagan bo'lib, ular – cho'l, dasht, tog' oldi, tog', tog'-o'rmon hamda vohalar va vodiylardir.

Cho'l – bu o'simlik qoplamida juda siyrak, oqar suvlar deyarli mavjud bo'lmagan va nisbiy namlik keskin past bo'lgan joydir (1-rasm). Cho'llar ularni qoplagan grunt qatlamiga ko'ra qumli, gilli va toshloq cho'llar kabi turlarga ajratiladi. O'zbekistondagi cho'llar qumli cho'llar bo'lib, ularning asosiy qismi ko'chma qumlar bilan qoplangan. Cho'llarning yuza qismi tekis, sust kesilgan yoki oqimsiz chuqurliklar va orol singari qad ko'tarib turuvchi yakka tepalar bilan qoplangan bo'ladi.

Cho'llardagi o'simlik qoplamida juda siyrak bo'lib, borlari ham qattiq poyali va tikanli bo'ladi. O'simliklarning cho'lga xos turlari bu yantoq, sho'ra, saksovul va yulg'un. Cho'l joyining asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu oqar suvlarning umuman yoki deyarli yo'qligidir. Bundan tashqari, yoqilg'i maqsadida ishlatish uchun yog'och mavjud bo'lmaydi. Yo'llar tarmog'i esa juda siyrak bo'ladi.

Relyef shakllarining bir-biriga juda o'xshashligi, alohida ajralib turuvchi mahalliy jismlarning deyarli yo'qligi mo'ljallanish va nishonni ko'rsatish hamda kuzatish maqsadida joy tanlash uchun katta qiyinchilik tug'diradi. Mo'ljallanish shamol tufayli tez-tez sodir bo'lib turadigan qum va chang to'zonlari oqibatida yana ham qiyinlashadi. Bundan tashqari, ko'chib yuruvchi qumlar mavjud yo'llarni tez orada bosib qolib, joyning umumiy ko'rinishini ham o'zgartirib yuboradi.

Cho'llardagi ko'rish uzoqligi kuchli shamol ta'sirida havoga ko'tarilgan chang va mayda qum zarralari tufayli kun davomida uzayib yoki qisqarib turadi. Oqar suvlarning deyarli yo'qligidan tashqari, yer osti suvlari

ham juda chuqurda joylashgan bo'ladi. Bundan tashqari, yer osti suvlari kuchli sho'rlangan va ichishga yaroqsiz bo'ladi. Chuchuk suvlar ba'zi-ba'zida uchraydi va asosan qadimgi daryo vodiylari yoki atrofdagi yerlardan chuqurroq bo'lgan yerlarda suvning yer ustiga sizib chiqishidan hosil bo'ladi. O'zbekistondagi cho'llarning yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu garchi ahyon-ahyonda bo'lishiga qaramasdan, ularda quduqlarning uchrab turishidir. Quduqlar asosan karvon yo'llari bo'yida joylashadi va bir-biridan uzoqligi juda katta masofani tashkil qiladi. Ularning chuqurligi bir necha o'n metr bo'ladi va hattoki, 100 m.dan ham oshadi. Quduqlarning sutka davomidagi suv sarfi bir necha ming litrni tashkil qiladi. Quduqlardagi suv ham ko'pincha ichishga yaroqsiz, sho'r yoki taxir bo'ladi. Bu suvni faqat maxsus tozalangandan keyingina ichish mumkin.



1-rasm. Ko'chma qumlar.

Dasht – bu quruq keskin iqlimga ega bo'lgan, daraxtlar umuman uchramaydigan, faqat o't o'simliklari uchraydigan va cho'lga nisbatan nisbiy namlik biroz yuqori bo'lgan, oqar suvlar ozgina ko'p uchratiladigan joydir (2-rasm). O'zbekistonda dasht zonasiga faqat Ustyurt platosi kiradi. U ham bo'lsa dashtlarning chekka janubiy qismida joylashib, eng quruq dashtlardan biri hisoblanadi hamda dasht va cho'l orasidagi oraliq bosqichni egallaydi.

Dashtlarda oqar suvlar juda kam uchraydi. Ularda ham mavsumiy bo'ladi va butun yil bo'yi suv mavjud bo'lmasdan, faqat bahor faslidagina yog'ingarchilikning ko'payishi oqibatida kichik soylarda oqar suvlar hosil bo'ladi. yer osti suvlari bir necha o'n metr chuqurlikda joylashadi.

Namgarchilikning tanqisligi o'simlik qoplamining siyrak bo'lishiga olib keladi. Ustyurtda asosan burgan, boyalish, shuvoq singari dag'al poyali o't o'simliklari o'sadi. Relyefning tep-tekis ekanligi, cho'lga o'xshab ko'chma qumlarning yo'qligi dashtlarni yo'llar bo'ylab yoki yo'llardan chiqqan holda, barcha yo'nalishlar bo'yicha yurib o'tish yoxud kesib o'tishga hamda jangovar harakatlarni olib borishga qulay imkoniyat yaratadi. Qo'shinlar harakatlanishiga va manyovr qilishiga qulay sharoitlar yaraladi. O'z navbatida bunday joylarda niqoblanish va dushmanning kuzatuvidan bekinish juda amrimaholdir.

Tog' oldi – tekislikdan tog'larga o'tish oralig'idagi ensiz, o'tkinchi joy turidir. Tog' oldidagi mutlaq balandliklar 500 m.dan 1000 m.gacha bo'lgan miqdorni tashkil qiladi. Tog' oldida nisbiy namlik va yog'ingarchilik yetarli bo'ladi hamda o'simlik qoplamining yil davomida o'sishiga sharoit yaratadi. Biroq qalin daraxtzorlarning paydo bo'lishiga hali yetarli imkoniyat vujudga kelmaydi. Asosan o't o'simliklari va butalar o'sadi. Relyef past-baland tepaliklardan iborat bo'ladi, bu esa o'z navbatida joyning yarim ochiq yoki yopiq bo'lishiga olib keladi. Tepalarning nisbiy balandligi 200 m.dan oshmaydi, qiyalik esa 3-5° ni tashkil qiladi.



2-rasm. Dasht.

Tog' oldi qo'shnlarning tez va yashirin harakatlanishiga qulay imkoniyat yaratadi. Bunday joylarda dushmanning yer usti kuzatuvidan osongina qochish va razvedkasidan bekinish sharoitlari ham mavjud. Qo'shinlar va jangovar texnikani joylashtirish imkoni nisbatan qulay.

Tog' oldida tabiiyki, kuzatuv ishlarini olib borish uchun maqbul hamda ko'rish maydoni juda uzoqqa cho'zilgan va ko'rish burchagi keng bo'lgan hukmron tepaliklar ko'p bo'ladi. Hukmron tepaliklardan mudofaa aylanasi sifatida joydagi mavjud ko'p sonli tepalardan, soylardan esa qo'shinlar va jangovar texnikani yashirish uchun foydalanish mumkin. Shunday bo'lsada, joyning o'rtacha kesilganligi jangovar texnika harakatini bir qadar sekinlashtirishini ham unutmaslik lozim.

Tog' – bu atrofdagi joylardan keskin ko'tarilgan va relyef juda o'nqir-cho'nqir joydir. Tog'lar juda murakkab relyef shakllari va keskin iqlim sharoitlari bilan boshqa joylardan ajralib turadi. Bu joylardagi relyefning asosiy shakllari – bu tog' tizmalari, tog' tepalari, tog' cho'qqilari hamda tik yonbag'irlarga ega bo'lgan qoyalar, daralar va tog' oralig'i soylaridir. Tog'larning yana boshqa xususiyatlari – bu relyefning juda o'nqir-cho'nqirligi, o'tib (borib) bo'lmas joylarning maydonning salmoqli qismini tashkil qilishi, grunt qatlamining faqat qattiq jinslardan tarkib topganligi, oqar suvlarning juda tez oqishi, suv sathining keskin o'zgarib turishi, iqlimning juda qattiqligi va aholining juda siyrakligidir.

Tog'lar taktik jihatdan yopiq va juda kesilgan joy turiga kiradi. Bunday noqulay sharoitlarda qo'shinlar faqat maxsus harbiy harakatlarnigina bajarishi mumkin. Tabiiyki, tog'larda yo'llarni faqat daryo vodiylari, daralar va dovonlardangina o'tkazish mumkin. Ko'pchilik hollarda ular tor (odatda 6-8 m), egri-bugri, tik ko'tarilmalar bilan ko'tarilgan, tik o'yilmalar bilan o'yilgan, ko'tarilish va tushish burchaklari katta (20° gacha), burilish radiusi juda kichik (20 m.gacha) hamda juda ko'plab sun'iy yo'l qurilmalariga (ko'priklar, tunnellar va boshqalar) ega bo'ladi. Yo'llar bo'ylab harakatlanish ko'pincha qish faslida to'xtab qoladi hamda ko'plab sirpanchiqlar hosil bo'ladi, tor daralar va soylar yonida esa qor uyumlari qoplab tashlaydi. Bundan tashqari, yo'llar ko'p sonli tog' ko'chkilari, surilmalar va toshqin suvlarining zararli ta'siri tufayli tez-tez ishdan chiqadi.

Tog'li joylarni kesib o'tish asosan tog' tizmalari, ularning tarmoqlari, daralar, soylar va dovonlarning ko'p yoki kamligiga bog'liq. Qo'shinlar harakatlanishi uchun ko'pincha tog' daralari va dovonlari zarur bo'ladi. Baland tog'larda ham tog' daralari va dovonlari uchrab tursada, ularni qor va tog' ko'chkilari tez-tez to'ldirib turadi. Bir vodiyaning ikkinchisiga o'tish faqat dovonlardan amalga oshiriladi. Dovonning o'tishga yaroqliligi unga eltuvchi soyning ko'tarilish burchagiga bog'liq.

Tog'larda ko'plab tor, tez oqadigan va kechib o'tish mushkul bo'lgan doimiy oqar suvlar mavjud. Ularning qirg'oqlari tik ko'tarilgan jarlardan iborat. Bu daryolarda jala quygan paytlarda sel hosil bo'ladi. Bundan tashqari, yog'ingarchilik mavsumida va bahor faslida qorlarning erishi boshlanishi bilan suv sathi

keskin ko'tariladi. Suv oqimining tezligi 7 m/s.ga yetadi. Kechuvlarni faqat suv sathi past bo'lgan paytlardagina kechib o'tish mumkin. Qor erishi yozda ham davom etadi, buning hisobiga suv sathi sutkaning kunduz qismida ko'tariladi, kechasi pasayadi. Bunday paytlarda kechuvni ertalab amalga oshirgan ma'qulroq bo'ladi. Tog'lar juda qulay himoya sharoitlariga ega. Joyning juda kesilganligi ko'plab pana joylarni vujudga keltiradi. O'z navbatida bu qulaylik kuzatish va o't ochish sharoitlarini pasaytirsada, qo'shinlarning yashirin harakatlanishi uchun qulay imkoniyat vujudga keltiradi.

Tog'lardagi joyni kuzatish sharoiti iqlim o'zgarishlariga bog'liq ravishda yil davomida va sutka mobaynida o'zgarib turadi. Ko'rinishni qiyinlashtiradigan eng asosiy sabab – bu bahor, kuz va qish fasllarida tez-tez paydo bo'lib turadigan tuman va bulutlardir. Ko'rinishning eng qulay sharoitlari yozda va kunduz paytlari paydo bo'ladi.

O'zbekistondagi tog'lar balandligiga ko'ra **past tog'lar, o'rtacha balandlikdagi tog'lar va baland tog'larga** bo'linadi. Past tog'lar dengiz sathidan 500-1000 m.li balandliklar oralig'ini, o'rtacha balandlikdagi tog'lar 1000-2000 m.li balandliklar oralig'ini, baland tog'lar esa tog'larning 2000 m.dan baland qismlarini egallagan. Tog'lardagi relyefning murakkabligi, kesilganligi, ularning tikligi past tog'lardan baland tog'larga tomon oshib, aholi esa kamayib boradi.

Tog'lar grunt qatlami hamda o'simlik qoplamiga ko'ra – tog'-o'rmon, tog'-o'tloq va tog'-cho'l turlariga bo'linadi. Tog'-cho'l va tog'-o'tloq joylarning barcha xususiyatlari yuqoridagi ta'rifga deyarli mos keladi.

Tog'-o'rmon – bu O'zbekiston tog'larida alohida ajratiladigan joy turidir. O'rmonlar O'zbekiston tog'larining mutlaq balandligi 1200 m.dan oshiq bo'lgan joylarida uchraydi. Ular keng hududlarni egallamagan va kattaligi bir necha gektardan minglab gektargacha keladi.

Tog'-o'rmonli joylarda tog'lar o'rmon bilan qoplangan bo'ladi. Bu esa uning bir qancha taktik xususiyatlarini o'zgartiradi. Siyrak o'rmonli joylar bunga misol bo'la olmaydi. Tog'-o'rmon deb, qachonki joyning umumiy maydonini 50% dan oshiq qismini o'rmonlar qoplasa aytiladi.

O'zbekiston tog'larida asosan ignabargli daraxtlar o'sadi. Ignabargli daraxtlar (asosan archa) o'sadigan o'rmonlar Chotqol (Toshkent viloyati), Turkiston (Jizzax viloyatining Zomin va Baxmal tumanlari) hamda Hisor (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) tog' tizmalarida uchraydi. Keng bargli daraxtlar (asosan yong'oq) o'sadigan o'rmonlar Nurota (Samarqand va Navoiy viloyatlari) hamda Bobotog' (Surxondaryo viloyati) tog'larida uchraydi.

Tog'-o'rmon faqatgina o'rtacha balandlikdagi va baland tog'larda uchraganligi sababli ular o'tish qiyin bo'lgan joylarga kiradi. Daraxtlar orasidagi o'rtacha masofa 6 m.dan kam bo'lgan joylar qo'shinlarning yurishi uchun eng katta qiyinchilik tug'diradigan joylar sirasiga kiradi.

Tog'-o'rmon dushmanning yer usti va havo kuzatuvidan berkitadigan hamda razvedkasidan pana qiladigan eng qulay joydir.

Qo'shinlarning yashirin harakat qilishi va dushmanga qo'qqisdan hujum qilish imkoniyati yuqori bo'ladi. Biroq shuni umuman esdan chiqarmaslik kerakki, xuddi shunday qulayliklarga dushman ham egalik qiladi.

Tarixan sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanadigan O'zbekiston aholisining deyarli barcha qismi yashaydigan va faoliyat yuritadigan joylar, bu vohalar va vodiylaridir.

Vodiylar deb, daryolarning ikkala yoqasidagi va unga yaqin joylardagi inson tomonidan sug'orma dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirilgan aholi yashovchi va faoliyat yurgizuvchi barcha turdagi joylar yig'indisiga aytiladi. Vodiylarga oddiygina misol – bu Zarafshon yoki Farg'ona vodiysidir. Ularning daryo vodiylaridan farqli tomoni o'lchamlari va tarixiy kelib chiqishidir.

Vohalar – bu dehqonchilik qilish maqsadida cho‘l va chala cho‘llardan tortib olingan hududlar bo‘lib (misol uchun: Buxoro vohasi), ularning tashqi ko‘rinishi vodiylari bilan deyarli bir xil bo‘ladi. Vohaning vodiyan yagona farqi shundaki, agar uni odamlar tashlab ketsa u yana cho‘lga aylanadi. Vohada o‘sovchi yovvoyi o‘simliklar ham cho‘l o‘simliklaridir.

Vohalar va vodiylarning taktik xususiyatlari birinchi navbatda ulardagi aholi punktlarining zichligi, o‘simlik qoplami bilan qay darajada qoplanganligi, grunt qatlami hamda joyning kesilganlik darajasiga bog‘liqdir.

Umuman olganda, vodiylar va vohalar qo‘shinlarning harakatlanishi hamda jangovar texnikaning qo‘llanilishi uchun juda qulay makon hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, sug‘orma dehqonchilik qilinadigan O‘zbekistondagi vodiylar va vohalarning asosiy xususiyati ularning sun‘iy sug‘orish tarmoqlari bilan kuchli darajada kesilganligi bilan belgilanadi.

Shunga ko‘ra, vohalar va vodiylar taktik xususiyatlariga binoan ochiq joy (agar dala faqat ekin yerlaridan iborat bo‘lsa), yopiq joy (agar joyda bog‘-rog‘lar va aholi punktlari zich bo‘lsa), o‘nqir-cho‘nqir (agar kechib o‘tish qiyin bo‘lgan katta sun‘iy sug‘orish tarmoqlari hamda jarlar bilan kuchli darajada kesilgan bo‘lsa) yoki kesilmagan joy bo‘lishi mumkin. O‘nqir-cho‘nqir, shuningdek, bog‘lar bilan qoplangan joylar qulay himoya xususiyatlariga ega.

Vohalar va vodiylar qo‘shinlarning harakatlanishi va hujumga o‘tishi uchun qulay. Chunki nisbiy balandlikning katta emasligi barcha yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rish uzoqligini uzaytiradi va barcha turdagi qurollardan o‘t ochish imkoniyatini vujudga keltiradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston vodiylari va vohalari qadimdan kuzatuv inshooti bo‘lib xizmat qilgan tepalar bilan ta‘minlangan. Shunday bo‘lsada, vodiylar va vohalar qo‘shinlarning mudofaa qilishi uchun noqulaydir. Negaki, tekis joy niqoblanishni tashkillashtirish sharoitlarini susaytiradi, uning himoya qilish xususiyatlari esa pastdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. «Spravochnik ofitsera po voennoy topografii». A.Govoruxin, M.Gamezo. M-1968.
2. «Spravochnik po voennoy topografii». Govoruxin A.M., Kuprin A.M., Kovalenko A.N., Gamezo M.V., M-1980.
3. «Voennaya topografiya» Nikolayev A.S., M-1976.
4. «Voennaya topografiya» Bizov B.E., M-1986.
5. «Voennaya topografiya» Filatov V.N., M-2008.
6. «Geodeziya» Qo‘ziboev T., T-1975.
7. «Uslovniesnakitopograficheskixkart», M-1983.
8. «Boevoy ustav suxoputnix voysk», T-2002.
9. «Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati» Dolimov Sh.Z., T-2007.
10. «Rukovodstvopoispolzovaniyugeoinformatsionnoy sistemi Panorama» T-2011.
11. «Yo‘ldoshlardan pozitsiyalanish asoslari va Montana-600 asboblardan foydalanish bo‘yicha qo‘llanma», T-2012.